
**O‘ZBEKISTONDA PROFESSIONAL TA’LIM MUASSASALARI TEXNIKUMLARGA
BIRLASHISHI: YANGILIKLAR VA O‘ZGARISHLAR**

Yodgorova Lobar

Romitan tuman 1-son kasb hunar maktabi

O‘quv ishlari bo‘yicha direktor o‘rinbosari

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbekistonda professional ta‘lim muassasalarining texnikumlarga birlashishi jarayoni va uning amaliy ahamiyati tahlil etiladi. Maqolada ta‘lim tizimidagi yangiliklar, o‘zgarishlar va bu o‘zgarishlarning iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy sohalarga ta‘siri ko‘rib chiqiladi. Texnikumlar va professional ta‘lim muassasalari o‘rtasidagi integratsiya jarayoni, yangi ta‘lim dasturlari, o‘qitish uslublari va malaka oshirish imkoniyatlari haqida ma‘lumot beriladi. O‘zbekistonning global ta‘lim maydonidagi o‘rnini mustahkamlash va innovatsion yondashuvlarni joriy etish masalalari ham yoritiladi. O‘zbekistondagi professional ta‘lim tizimidagi yangiliklar mamlakatning iqtisodiy rivojlanishi va kadrlar tayyorlash jarayonlarini takomillashtirish maqsadida amalga oshirilmoqda. 2024 yildan boshlab, professional ta‘lim muassasalari texnikumlarga birlashishi jarayoni boshlandi. Bu o‘zgarishlar mamlakatdagi ta‘lim tizimini modernizatsiya qilish, kadrlar tayyorlashning sifatini oshirish va talablarning zamonaviy talablarga moslashtirishga qaratilgan.

Kalit so‘zlar: professional ta‘lim, pedagogik tajriba, innovatsiyalar, ta‘lim tizimi, zamonaviy qiyofa, duol ta‘lim, iqtisodiy jarayonlar, yangicha yondashuv, o‘qitish texnologiyasi, elektron ta‘lim resurslari, innovatsion ta‘lim texnologiyalari.

Kirish:

O‘zbekiston Respublikasida ta‘lim tizimi doimiy ravishda yangilanib, zamon talablariga moslashmoqda. 2024 yil 16 oktabrda qabul qilingan “Kasbiy ta‘limda malakali kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish va xalqaro ta‘lim dasturlarini joriy qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi prezident farmoni bu jarayonda muhim qadam bo‘lib xizmat qilmoqda. Ushbu farmon asosida professional ta‘lim muassasalari, jumladan, texnikumlar o‘rtasida integratsiyani kuchaytirish, ta‘lim sifatini oshirish va xalqaro standartlarga mos keluvchi dasturlarni joriy etish maqsadlari ko‘zda tutilgan.

Farmonga asosan kasbiy ta‘lim tizimida quyidagi asosiy yo‘nalishlar bo‘yicha takomillashtiriladi.

Hozirgacha professional ta‘lim tizimi 3 ta turdagi – 333 ta kasb-hunar maktabi, 11 ta kollej va 227 ta texnikumdan iborat bo‘lgan. Bu muassasalar tabaqalashgani va dasturlari o‘rtasida uzviylik bo‘lmagani sabab ularning quvvatlaridan unumli foydalanilmagan.

Endi prezident farmoni bilan 3 ta turdagi muassasalar optimallashtirilib, ularning negizida barcha darajalar va yo‘nalishlar bo‘yicha kadr tayyorlaydigan yagona muassasa turi – texnikumlar tashkil etiladi. Bunda 672 ta profita‘lim muassasalari negizida 600 ta texnikum tashkil etiladi, 71 ta ta‘lim muassasalari maktablarga berilib, 42 mingta yangi o‘quvchi o‘rinlari yaratiladi. ta‘lim darajalarining uzviyligi, uzluksizligi va integratsiyasi ta‘minlanadi va shunga asosan:

✓ Kasbiy ta‘limning barcha darajalari bo‘yicha kadrlar tayyorlaydigan yagona tizim joriy qilinadi;

✓ Texnikumlarning akademik mustaqilligi oshiriladi hamda iqtisodiyot tarmoqlari talablariga mos kadrlar tayyorlash imkoniyatlari kengaytiriladi;

✓ O‘quv jarayoniga xalqaro tan olingan ta‘lim dasturlari joriy qilinadi va ta‘lim to‘g‘risidagi hujjatlarning xorijiy davlatlarda tan olinishi ta‘minlanadi;

✓ Texnikumlar o‘quv jarayonlari bosqichma-bosqich raqamlashtiriladi;

✓ Zamonaviy boshqaruv tizimi joriy qilinadi va o‘rta bo‘g‘in kadrlarini tayyor-lashda manfaatdor vazirlik va idoralar bilan o‘zaro hamkorlik kuchaytiriladi;

✓ Zamonaviy o‘quv adabiyotlari, metodik qo‘l-lanmalar va raqamli kontentlar, laboratoriya va ustaxonalarini eng zamonaviy jihoz-lar bilan ta‘minlash amalga oshiriladi;

✓ “Kasbiy ta‘lim” platformasi orqali xar bir tumandagi ehtiyoj o‘rganiladi;

✓ Qabul parametrlari ish beruvchilar takliflari asosida har yili 1 martgaqadar tasdiqlanadi va e‘lon qilinadi;

✓ Texnikumlarga kirish imtihonlari shakli Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan belgilanadi;

✓ Texnikumlarda turli darajadagi kasbiy ta‘lim dasturlarining o‘zaro uzviyligita‘minlanadi hamda o‘zlashtirilgan modullardan kelib chiqib ta‘lim dasturlarining o‘qitish muddatlari belgilanadi;

✓ O‘rta maxsus kasbiy ta‘lim dasturlarining bitiruvchilari o‘zlashtirgan modullari, to‘plangan kreditlari va oliy ta‘lim tashkiloti tomonidan belgilangan ballar o‘rtacha qiymatidan (GPA) kelib chiqib, bakalavriatning muayyan bosqichidan o‘qishni davom ettiradi.

Kasbiy ta‘limni rivojlantirish uchun alohida jamg‘armasi tashkil etiladi. Jamg‘arma quyidagilarga yo‘naltiriladi:

✓ metodik ta‘minoti mustahkamlanadi,

✓ Bino va inshootlarini zamonaviy jihozlar bilan ta‘minlanadi

✓ O‘quv jarayonini raqamlashtiriladi.

✓ Kasbiy ta‘lim sohasida tanlovlar o‘tkazish hamda malakali mahalliy va xorijiy mutaxassislarni jalb qilinadi.

✓ O‘qish jarayoniga ish beruvchilar jalb qilinadi

Hozirgi kunda qabul parametrlari va ta‘lim dasturlari ish beruvchilar talabi asosida emas, balki ta‘lim muassasalaridagi o‘qituvchilar va mavjud asbob-uskunalaridan kelib chiqib shakllangan. Shu sabab ayrim hududlarda muayyan o‘rta bo‘g‘in kadrlarga ehtiyoj bo‘lsa-da, texnikumlarida mutaxassislar tayyorlash yo‘lga qo‘yilmagan.

Buni o‘zgartirish uchun qabul parametrlarini shakllantirish bo‘yicha elektron platforma yaratiladi, barcha vazirlik va ish beruvchilar unga ulanadi. Texnikumlarning ta‘lim dasturlari tarmoq kengashlari, tadbirkorlar birlashmalari, yirik ish beruvchilar va uyushmalar bilan kelishilganidan so‘ng amaliyotga kiritiladi

Shuningdek, endilikda yakuniy attestatsiyalarni texnikum xodimlari emas, ish beruvchilar va uyushmalar vakillari o‘tkazadi.

Yagona boshqaruv tizimi joriy qilinadi

Hozirgacha profita‘limda yaxlit boshqaruv tizimi mavjud bo‘lmagani va muassasalar 27 ta vazirlik va idoralar bo‘ysunuviga berilgani sabab ularning faoliyati samarali tashkil etilmaganini aytadi matbuot xizmati rahbari. “Vazirliklar o‘rtasida muvofiqlashtirish bo‘lmagani sababli 75 ta kasbga o‘qitish markazida o‘qitilayotgan 30 dan ortiq kasblar yaqin hududdagi 275 ta profita‘lim muassasasida ham o‘qitilyapti. Shunga ko‘ra, profita‘limda tashkiliy-boshqaruv va metodik masalalarni muvofiqlashtiruvchi va yagona davlat siyosatini yurituvchi organ sifatida Oliy ta‘lim vazirligi belgilanadi. Shuningdek, profita‘lim muassasalarini adabiyotlar va jihozlar bilan ta‘minlash va o‘quv jarayonini raqamlashtirish maqsadida Oliy ta‘lim vazirligi huzurida alohida

jamg'arma tashkil etiladi. Unga vazirlikning byudjetdan tashqari jamg'armasidan 50 mlrd so'm va davlat byudjetidan 2025 yilda 50 mlrd so'm ajratiladi.

Xulosa:

O'zbekiston Respublikasida professional ta'lim muassasalari texnikumlarga aylantirishi ta'lim tizimini modernizatsiya qilish va uning sifatini oshirish maqsadida amalga oshirilayotgan muhim qadamdir. 2024 yil 16 oktabrda qabul qilingan prezident farmoni asosida boshlanayotgan bu jarayon, kasb-hunar ta'limini zamonaviy talablar va xalqaro standartlarga mos ravishda yangilashga qaratilgan.

Professional ta'lim muassasalari texnikumlarga aylantirishi nafaqat ta'lim sifatini yaxshilash, balki o'quvchilarni zamonaviy kasb-hunarlarga tayyorlash va ularni ish bilan ta'minlash darajasini oshirishga xizmat qiladi. Ushbu o'zgarishlar natijasida, O'zbekistonning ta'lim sohasida raqobatbardoshligini kuchaytirish, innovatsion g'oyalarni joriy etish va iqtisodiy rivojlanishni rag'batlantirish imkoniyatlari paydo bo'ladi.

Kelajakda, professional ta'lim muassasalarining yangilanishi yosh avlodni yuqori malakali mutaxassislar sifatida tayyorlash, iqtisodiyotning turli sohalarida ularning rolini kuchaytirish va mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga hissa qo'shish kutilmoqda. Shu bilan birga, bu jarayon ta'lim tizimining barqarorligini ta'minlash va jamiyatda kasb-hunar ta'limining ahamiyatini oshirishga xizmat qiladi. O'zbekistonning ta'lim sohasidagi yangiliklari va o'zgarishlari, kelajak avlod uchun yangi imkoniyatlar yaratishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 16.10.2024 yildagi PF-158-son qarori.
2. U.I. Nazarov. "Professional ta'lim muassasalarida egallangan bilim, Ko'nikma va malakalarni hayotda qo'llash". "PEDAGOGS" international research journal ISSN: 2181-4027_SJIF: 4.995. Volume-38, Issue-1, July-2023.p: 25-29
3. N.M. Egamberdieva, A.U. Axmadaliev, A.B.To'raev . Pedagogikaning taraqqiyot tendensiyalari va innovatsiyalari moduli T.: Iste'dod, 2016. – 279 b
4. G.I. XASANOVA "Ta'lim jarayonida dasturlashtirilgan o'qitish texnologiyasidan foydalanishning afzalliklari" Jizzax: 2020. 420 bet. 223-225b
5. Ishmuxamedov R., Abdukodirov A., Pardaev A. Tarbiyada innovatsion texnologiyalar (ta'lim muassasalari tarbiyachi-ukituvchilari va guruh rahbarlari uchun amaliy tavsiyalar) - T.: Iste'dod, 2010. - 1416.